

UDC 8.82

ОТРАЖЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ В РОМАНАХ О.ЁКУБОВА

Д.А. Эргашева¹*Аннотация*

В статье излагаются взгляды относительно взаимосвязи языка и мышления, отражения данного взаимоотношения в литературном тексте и факторов влияющих актуализации языковых единиц.

Ключевые слова: язык, мышление, языковые особенности литературного произведения как способ проявления творческого мышления.

Kirish

Ma`lumki, tafakkur inson ma`naviyatining tarkibiy qismi, bilishning olamdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o`rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya`ni qonuniy bog`lanishlarni aks ettiradigan aqliy bosqichidir [9]. Bu bosqichda narsa va hodisalarning yangi xususiyatlari kashf qilinadi. Bunda tafakkurning moddiy shakli bo`lgan badiiy til olamning lisoniy manzarisini yaratish bilan birga insonning voqelikka nisbatan o`zgacha, o`ziga xos munosabatini ham namoyon etadi.

Til va tafakkur munosabati fanda atroflicha o`rganilgan masalalardan biri hisoblanib, zamonaviy falsafada til va tafakkur o`zaro bog`liq hodisalar sifatida e`tirof etiladi [1]. Tilning mavjudligi tafakkurning umumlashtiruvchi faoliyatining eng zaruriy shartidir.

Badiiy asar tili ijodiy tafakkurning namoyon bo`lish shakllaridan biri sifatida antropotsentrik mohiyat kasb etadi. Til va tafakkur hamkorligi yangi-yangi badiiy ifodalarni yuzaga keltirib, ham ijodkor shaxs salohiyatini, ham tilning cheksiz imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Psixologik nuqtai nazardan matn individning nutqiy tafakkufi mahsuli, ob`yektiv borliqni til tizimi vositasida aks ettirish qobiliyati sifatda namoyon bo`ladi. Bunda matnning shakli va mazmuni muayyan kommunikativ vaziyat qatnashchisi – konkret shaxsning psixologik xususiyatlari bilan uzviylikda tahlil qilinadi[4]. O`zbek tilidagi matnlar tahlili shuni ko`rsatadiki, shaxsning ruhiy holati ifodalangan matnlarda muayyan til birliklari aktuallashadi. Hozirgi kunga kelib tilshunoslikda antropotsentrik omil o`z o`rniga ega bo`ldiki, buning oqibatida lisoniy metodologiya antropotsentrik tamoyil bilan boyidi, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi sohalar til hodisalarini “tilning ichida” emas, balki til egalari bilan munosabatlari asosida tadqiq qilmoqdalar [2].

Asosiy qism

V.G. Belinskiy inson ruhiyatini chuqur va mukammal tasvirlash uchun romanda imkoniyatlarning nihoyatda kengligini uqtirgan edi: “Bu eng keng, har narsani o`z ichiga oladigan poeziya turi; unda istedod o`zini cheksiz erkin sezadi”[6]. Inson ruhiyatining badiiy tahlili – so`z san`atining asosiy belgisi, uning tub mohiyatini belgilovchi sifatidir. Zotan, insonshunoslikni shaxsning ruhiy dunyosidan ajratib tasavvur etib bo`lmaydi. Insonning ruhiy dunyosi o`zaro suhbatlarda, tortishuvlarda, diolog va monologlar vositasida ochiladi. Odil Yoqubov o`zining “Ulug`bek xazinasi”, “Diyonat”, “Ko`hna dunyo” romanlarida qahramon ruhiy holatini yoritishda diolog va monoglardan foydalanish mahoratini namoyon qila olgan.

Har bir davrning yozuvchi va shoirlari o`z asarlarini o`qimishli va jo`shqin qilish uchun qahramonlarining ruhiyatini munozaralarda, bahslarda, o`zaro tortishuvli suhbatlarda ochib ko`rsatadi. Til orqali yozuvchi asar qahramonlarining murakkab, o`ziga xos xarakterli xususiyatlarini hamda sharoit va muhitning inson ruhiyatiga ta`sirini

¹Эргашева Дилрабо Алланазаровна – студентка, Термезский государственный университет, Узбекистан.

tahlil qiladi. Inson ruhiy holatining rang-barangligi uning nutqida, soʻzlash tarzida yaqqol aks etadi. “Ulugʻbek xazinasi” romanida til ruhiyatga, ruhiyat tilga oʻtadi. Bu qonun dialoglarda, personajlarning oʻzaro ziddiyatlarida ham koʻrinadi.

Jaholat bagʻrida yorqin yulduz boʻlib porlagan Ulugʻbek hayotining soʻnggi damlari, uning nodir ilm xazinalaridan bitgan asarlari-yu, suyuqli shogirdlaridan, Nurziyo rasadxonasi, Ona vatanidan benasib boʻlish arafasidagi oʻgʻli bilan qilgan dialogiga diqqat qiling: “... Menga hech narsa kerak emas. Bu toju taxt, saltanat, shon-shuhrat bari oʻzingga buyurgʻay! Otangga yolgʻiz rasadxonani inʻom etsang bas! Bir burda non, bir qumgʻon sovuq suv boʻlsa yetar. Azmim qolgan umrimni “Ziji koʻragoniy”ni tugatib, mutolaa bilan kun kechirmoqdir!... Shaxzoda keskin burilib qaradi. Siyrak muyloving uchlarini dikkayib, lablari titrab: - Tagʻin rasadxona! Tagʻin “Ziji Koʻragoniy”, - dedi boʻgʻilib. - Mudarris dastorini oʻragan barcha murtaqlarni qanotingiz ostiga olib, din peshvolarini oyoq osti qilmishsiz!...” (O.Yoqubov, Ulugʻbek xazinasi). Ota bilan farzand oʻrtasidagi maʼnaviy olishuv ikki xil inson ruhiyatining ichki mohiyatini yaqqol koʻrsatadi. Ulugʻbek bilan Abdullatif ota-bola emasdek, dialogda ilm bilan jaholat kurashayotgandek tuyuladi. Ulugʻbek ota sifatida farzandiga achinadi, kuyunadi. Oʻgli din peshvolarining qoʻlida bir oʻyinchoq boʻlib qolishini oldindan his qiladi va farzandiga otalik mehri joʻshib, nasihat qilmoqchi boʻladi. Farzandi tushunishni xohlamaydi.

Amir Temur nabirasi, butun umri eʼzozda oʻtgan mamlakat podshosi, buyuk al-loma Ulugʻbek (“bir burda non, bir qumgʻon sovuq suvga”) qolgan umrini ilmga bagʻishlamoqchi boʻlganida, nobakor oʻgʻil otasining olijanob niyatini masxara qiladi. Ota ilm-fandan, noyob xazinadan soʻz ochsa, ochkoʻz farzand Amir Temur tillalari yashiringan joyni soʻraydi. Dialogning davomida Ulugʻbek obrazining yana boshqa tipik xususiyatlari namoyon boʻladi: “... - Ota soʻzin amri vojib, deb bilursenmi, yoʻqmi - ixtiyor senda. Va lekin nasihatimni eshit, xohla oʻz padaringni qatl et, xohla Movaraunnaxr sarhadidan haydab darbadar qil - boz ixtiyor sendadir. Lekin yolgʻiz tilagikm: ilm yoʻlida otang qilgan ishlarga, uning shogird ustodlariga tegmagaysen. Tegsang... ota qargʻishiga uchrab toabad badnom boʻlursen!... Ota rozi - xudo rozi, yodingda boʻlsin: al qasosil minalhaq! Hech bir yomonlik intiqomsiz qolmaydur! Senga aytadurgʻon boshqa soʻzim yoʻq! Chaqir yasovulingni!”

Dialog monologik nutqqa aylanib ketadi. Ulugʻbek oʻzi bilan oʻzi gaplashayotgandek, yuragini kemirayotgan zardali soʻzlarni toʻkib tashlaydi. Farzandiga amrimni, nasihatimni eshit, deb daʼvat etadi, ayni vaqtda shahzodaning mavqeyiga mos holda “boz ixtiyor sendadir” deydi. Otaning oʻgʻliga dil soʻzini aytishdan boshqa ilinji qolmagan edi. Uning tilida “ota qargʻishiga uchrab toabad badnom boʻlursen”, “ota rozi xudo rozi”, “hech bir yomonlik intiqomsiz qolmas” kabi til birliklari berilishi xarakterni tipiklashtiradi.

O. Yoqubov “Ulugʻbek xazinasi” romanida real va tipiklashgan ota va oʻgʻil obrazining ruhiy holatlarini shundaygina koʻrsatib qolmay, balki dialoglar vositasida suhbatli tortishuvlarda ularning qalbini kitobxonga yaqqol ochib koʻrsatadi. Romandan olingan qaysi bir dialogning jumlasiga eʼtibor qilmang, u asar gʻoyasini ochishga, personajlarning xarakteridagi tipiklik xususiyatlarni toʻliq gavdalantirishga yordam beradi. Asarda dialoglarga juda keng oʻrin berilgan, jumladan dialog toʻqima obrazlar ruhiyatini yoritishda ham kuchli vosita boʻlib xizmat qiladi. Eng yaxshi toʻqima obrazlar ham individuallashtirgan tipik xarakterlar darajasiga koʻtariladi.

Salohiddin zargarni oling. Uning kiyim - kechagi, boyligi, hatto xarakatlari, soʻzlash tarzi oʻsha zamon zargarlarining tipiga mosdir. Salohiddin zargar ruhiyatining oʻzgaruvchanligini kampir bilan boʻlgan dialogdan bilib olish qiyin emas.

- Nabiram ne degan edi? Tilagi ne edi uning? - Soʻzla, kampir! - dedi Salohiddin zargar, ovozi qaltirab. - Nuridiydami, nabiram, - dedi oʻksib, - musofir shoir Qalandar bilan goʻrimiz bir boʻlsin degan edi... - “Musofir shoir, Qalandar bilan goʻrimiz bir boʻlsin?! Yorabbiy, bu kampir ne deydi? ...” Boʻsagʻada garangsib turgan Ali Qushchining xayolini Salohiddin zargarning: -Shoir, Qalandar?! - degan xitobi boʻldi. Hozirgina peshonasiga mushlab, goʻdaklarday nola chekib yotgan chol oʻrnidan turib ketgan, koʻzlari chaqnaq aylanasiga qarar, lekin chamasi hech kimni koʻrmas edi. -Bu soʻzni qaydan topding, kampir?! Men kim Salohiddin zargar, boʻstonimning guli, yolgʻiz nabiram, koʻzimning nuri, suyuqli nabiramni oʻshal gado bilan bir yerga koʻmamanmi? Ne deb aljiraysen, kampir?” (359 - bet).

Yozuvchi Salohiddin zargar obrazini kichik detallar orqali yorqin chizadi. Odatda farzandi, nabirasi o'limi ustida kuyingan bobo oltin-javohirlarni o'ylamasligi kerak. Lekin Salohiddin zargar u toifadagi bobolardan emas. Adib dialogda Salohiddin zargarning molparast, kishilarni mensimaydigan xarakteridan kelib chiqib, (Shayx Ubaydullo Xo'ja Axror, Ali Qushchi bilan bo'lgan suhbatida ham) uning nutqini individuallashtiradi.

“Ulug'bek xazinasi” romanidagi asosiy qahramonlar asar davomida xayolga, xotiraga ko'p beriladilar. O'z his-tuyg'ularini, teran kechinmalarini ichki monologik nutqda bayon etadilar. Ulug'bekning hayoti va ilmiy tafakkuri bilan tanishmoqchi bo'lib turgan kitobxon to'satdan hayajonga tushadi, chunki yozuvchi asardagi voqealarni boshlashi bilanoq, muallif nutqiga Ali Qushchining ichki monologik nutqi qo'shilib yangraydi: *“Nechun, nechun shunday bo'ldi? Nechun falakkiyot ilmini idrok eta olgan, o'tkir tafakkuri bilan koinot sirlarini ochib, yangi yulduzlar kashfetgan allomalar sarboni taxt va saltanatning bevafoiligini idrok etolmadi?... Nechun hokimiyat deb atalmish bu sohta shon-shavkatdan voz kechib, butun tafakkuri, o'tkir mushohadasi, butun salohiyatini ilm-fanga, insonni ulug'lovchi ziyo-ma'rifatga baxsh etolmadi? Nechun?”* (O. Yoqubov, Ulug'bek xazinasi).

Qahramon nutqining kuchi kitobxonni asar voqealarining ichiga sezdirmay kiritib qo'yadi. Kitobxon qahramonning ichki nutqini tinglarkan, u ham obrazga qo'shilib, xayol og'ushiga cho'madi va qalbida olim Ulug'bekka hamdardlik hissi paydo bo'ladi.

Ruhiy holatlar, romantik ko'tarinki o'ylar o'sha zamonga xosdir, chunki u davrlarda farzand o'z otasi bilan toju taxt talashib, urushadigan, fan va uning fidoyilarini fojiaga uchratadigan, sevishtanlar sevgilisiga dardini ochiq ayta olmaydigan zamon edi. Hayotning bunday real manzarasi qisman asardagi qahramonlarning monologik nutqi orqali namoyon bo'ladi. “Har bir qahramon o'z psixik xususiyatlari va ruhiy holatlarining qay darajada ekanligiga qarab ichki monologlar tiplari ham har xil bo'lishi mumkin. Bular a) monolog – xotira, b) monolog – muhokama, v) monolog – mulohaza”[3].

“Ulug'bek xazinasi” romanining bosh qahramoni Ulug'bekning monologik mulohazasiga diqqat qiling: *“... Bu manxus toju taxt, bu saltanat, insonlar ustidan hokimlik qilmoq istagi shunday shirin ekanki, uning niyati pokligiga kim inonadi. Kim uning samimiyligiga, o'z ixtiyori bilan saltanatdan qo'l yuvganiga inonib, tinch qo'yadi. Agar unga inonsalar, inonib idrok bilan bamaylixotir shug'ullanishga qo'yib bersalar, u hozir ham vafosiz hokimiyat, bu toju taxtdan bajonu dil voz kechar erdi ...”* (27 – 28 - betlar).

Mazkur ichki monologdagi til juda tiniq, hayot haqiqatini aniq qilib ko'rsatadi. Yozuvchi Ulug'bekning individual ruhiy qiyofasini o'ziga xos til bilan so'zlata olgani va uning holatini nutqi orqali yoritib bergani uchun ham obraz ishonarli chiqqan. Yuqoridagi matnda Ulug'bekning ichki monologik nutqi uning qalb tug'yonini kitobxoniga yuqtiradi va shu tarzda Ulug'bek obrazini yorqinlashtiradi. Haqiqatdan ham, qirq yil Movarounnahrda rahnamolik qilgan buyuk olimning ma'naviy qiyofasini va hayotining eng keskin jabhalaridagi yashirin o'ylarni yozuvchi faqat monologik nutq orqali yoritib berishi mumkin. Bundan tashqari, yozuvchi Ulug'bekning olimona, aqlli, zakovatli nutqi bilan uning podshohlik tashvishlaridan, g'iybatu fisqu fasodlardan, taxt talashish (ayniqsa o'z farzandi bilan) va ichki urushlardan, vafosiz hokimiyatdan bezib turgan ruhiy holatini so'zlarning eng nozik ma'no tovlanishlari orqali ochib beradi.

Ulug'bek shohning ichki dardi ... Bu dardni o'zidan boshqa hech kimga ayta olmaydi. Aytgani bilan *“... kim uning samimiyligiga, o'z ixtiyori bilan saltanatdan qo'l yuvganiga inonib, tinch qo'yadi...”*.

Yozuvchi murakkab shaxsiy tuyg'ularni so'z bilan ta'riflaganda monologik nutqning ko'zga ko'rinmas, lekin barchaga ta'sir etuvchi “alanga”laridan foydalanadi. Biz buni Abdullatifning tushiga oid monologida ko'ramiz. U mamlakatda yolg'iz podsho bo'lish, oltin javohirlaru, nozanin qizlar bilan bazmu jamshid qilish ishtiyoqida yuradi va shu yo'lda otasini o'ldirgan padarkush shahzodaga aylanadi. Abdullatifning tushdan ta'sirlanib, o'zini ovutish maqsadida Nizomiy Ganjaviy kitobini o'qimoqchi bo'lgan vaziyatida yana bir to'qnashuvga duch kelganini ko'rib chiqamiz: *“Yo rab! Hozir kitobni ochganda dafatan ko'zi tushgan ilk misralar tushida ko'rgan qonli kalladan ham dahshatli edi ... Padarkush... toju ... taxt ... olti oydan oshmaydur... ”. Uning taxtda o'tirganiga necha oy bo'ldi? ... Sha'bon oy edi. Bir kun rabbiul avval ... olti oy ... bo'lmish ... Shahzoda turgan joyida gilamga tiz cho'kib, sajdaga bosh qo'yarkan, ko'ksidan achchiq*

faryod aralash bir nido otilib chiqdi: - Osiy bandanga o`zing shafqat qilgaysen, ey parvardigori olam! Va lekin yozig`im nedur?" (335 – 336 – betlar).

Yozuvchi qahramonini xuddi shu drammatik va tragik holatini bo`rttirib ko`rsatish maqsadida tush ko`rish vaqti bilan Nizomiy Ganjaviy kitobini varaqlash vaqtini (sharoit) muqoyasa qiladi. Monologni berishdan oldin muallif shaxzodaning "Ko`ksidan achchiq faryod aralash bir nido otilib chiqdi" deydi. Bu – Abdullatif monologni ovoz chiqarib, ba`qirib aytdi degan so`z emas, balki qahramon ko`ksidagi achchiq faryodini qalbi bilan so`zlab berdi, demakdir. Abdullatifning tush ko`rishi va ruhiy holatini faqat ichki monologik nutq orqali berish mumkin. Monologik nutqdagi har bir so`z Abdullatif ruhiy holatini shakllantiradi.

Xulosa

Odil Yoqubov xoh tarixiy, xoh zamonaviy obraz yaratmasin, muallif nutqi orqali inson ruhiy holatini yoritib bera olgan. Muallif qahramonlarining ruhiy holatlarini qabartirib, kuchaytirib, yuz mimikalarini so`zga moslab, voqealarni sharoitga bog`lab ko`rsatib bera olgan. U "Ulug`bek xazinasi" romanida tarixiy qahramonlar tilining "kalitini" topa olgan. Bu kalit – qahramonlarning ichki monologidir. Shu kalit bilan yozuvchi har bir qahramonining ichiga kirib boradi. Adib yaratgan monologlarda muallifning ovozi eshitilib turadi.

Inson qalbi sirlarining poyoniga yetib bo`lmaydi. Negaki, davrlar osha insonning ongi va tushunchasi o`sib, o`zgarib borgani kabi, qalbi ham o`sib boradi. Ijtimoiy hodisalarning tasvirida o`sha davr kishilari ma`naviy – ruhiy dunyosining talqini hal etuvchi ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Falsafa. Qomusiy lug`at. - Toshkent, 2004.
2. Rahimov A.U. O`zbek tilshunosligi taraqqiyotining imperik, nazariy va metanazariy bosqichlari // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. VI kitob. - Toshkent, 2013.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - Toshkent. 2008.
4. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. - Toshkent, 2013.
5. Yoqubov Odil. Diyonat. - Toshkent, 1979.
6. Белинский В. Г. Собрание сочинений в 3-х томах, т. 3, - М.,1989.
7. Ёкубов О. Улуғбек хазинаси. –Тошкент, 1980.
8. Серебrennikov Б. А. Роль Человеческого фактора в языке. - М.: Наука, 1988.

© Д.А. Эргашева, 2019